



BO‘LAJAK TARIXCHILARDA TARIX
FALSAFASINING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR
BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o‘g‘li

Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirish samaradorligi hususida ayrim fikr mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishga oid tajriba sinov ishlarining mazmuni, mohiyati hususida ham ayrim mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilari, tarix falsafasi, zamonaviy konsepsiyalar, bilim, rivojlantirish, tajriba-sinov, respondent.

Аннотация. В статье изложены некоторые соображения относительно эффективности развития знаний о современных концепциях философии истории среди будущих учителей истории. Также высказаны некоторые соображения относительно содержания и сущности экспериментальной работы по изучению развития знаний о современных концепциях философии истории среди будущих учителей истории.

Ключевые слова: будущие учителя истории, философия истории, современные концепции, знания, развитие, экспериментальное тестирование, респондент.

Abstract. Some considerations are expressed regarding the effectiveness of developing knowledge of modern concepts of the philosophy of history among future history teachers. Also, some considerations are expressed regarding the content and essence of experimental testing work on the



development of knowledge of modern concepts of the philosophy of history among future history teachers.

Keywords. Future history teachers, philosophy of history, modern concepts, knowledge, development, experimental testing, respondent.

Bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim strategik yo'nalishlaridan biridir. Chunki bo'lajak tarixchilarning kasbiy faoliyatida tarixiy faktlarni quriq yodlab olish va faktalogik ma'lumotlarni yig'ish emas, tarixiy jarayonni anglash tarixiy xodislarning qonuniyatlari, ularni sabab-oqibat zanjiri asosida sodir bo'lish ketma-ketligini tushunishlari va shu asosida tarixiy jarayonga to'g'ri baho berishlariga doir bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Shu bois "Tarix falsafasi va metodologiyasi" fani asosida ishlab chiqilgan metodikani takomillashtirish ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirish jarayonlarni tashkil etishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish zarur: ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda tarix falsafasini o'qitishga yangicha yondashish va tarixiy-falsafiy bilimlarni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi ta'limiy-tarbiyaviy munosabatlarning mavjudligi; tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishda pedagogik jarayonlarning o'zaro integratsiyasi va aloqadorligini ta'minlanishi; ta'lim-tarbiya jarayonlarida bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ta'siri, o'ziga xos ahamiyati va zaruriyati; tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishda motivlashtirishning samaradorligi mazkur jarayonni natijadorligini ifodalashi; tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirish

jarayonlari samaradorligining motivlashtirishga bog‘liqligi; motivlashtirish jarayonida yangi ma’lumotlarning ahamiyati va roli.

Demak, bo‘lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirish yo‘nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e’tibor talab qilayotgan birinchi omil ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlashda talabalar falsafiy tafakkuri, kasbiy va shaxsiy faolligi va mustaqil ta’lim olishga to‘g‘ri yo‘naltirilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, pedagogik jarayonda talabalarning faolligini ta’minlashda ularning mustaqil amaliy ilmiy faoliyati, ya’ni mustaqil ta’lim va mustaqil ma’lumotlar olishi hamda o‘zini-o‘zi tarbiyalashi muhim ahamiyat kasb etadi va bu ahamiyat ularni tarix falsafasiga doir bilimlar bilan qurollanishga asos sifatida xizmat qilishida o‘z ifodasini topadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuvlar, integrativ ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulot, seminar-treninglardan foydalanish bilan bir qatorda, talabalarga oldindan tarqatiladigan anketa-so‘rovnomalar, tezkor savol va tezkor javob topshiriqlaridan foydalanish juda katta natija beradi. Bo‘lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirish yo‘nalishida tashkil etiladigan amaliy va seminar mashg‘ulotlarni talabalarning gigienik ta’limga doir tushunchalarini o‘rganish va tahlil qilish orqali ular tomonidan mustaqil ravishda o‘rganilgan adabiyotlar, ma’ruzalar jarayonida berilgan ma’lumotlar asosida takomillashtirilishi, o‘rganiladigan asosiy tushunchalarni test va modellar ko‘rinishida ifodalash uchun imkoniyat yaratadi. Bo‘lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirish jarayonida interfaol suhbat, ishchanlik o‘yinlari, seminar-trening kabi metodlardan foydalanish talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga o‘rgatishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki o‘qitishning faol metodlari hisoblangan mazkur metodlar ta’lim-



tarbiya jarayonida talabalarning faolligini ta'minlaydi, ya'ni tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishda trening metodi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, trening ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda, qo'yilgan maqsadlarni muvoffaqiyatli yakun topishida ham yuqori natijani qo'lga kiritish imkonini beradi. Mazkur metodga asoslanib tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasiga doir bilimlar shakllanadi. Trening jarayonida talabalarning o'zaro ta'sir ko'rsatishi natijasida ularda muloqotning turli xil uslublaridan foydalanish malakalari rivojlanadi. Bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirish imkoniyati juda katta, chunki yangiliklar, yangilanishlar, o'zgarishlar, innovatsiyalar tom ma'noda ta'lim tizimini samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi bu talabalarni ham innovatsion faoliyatga maqsadli yo'naltiradi, ham falsafiy fikrlashga chorlaydi. Mazkur jarayon to'rt bosqichda amalga oshiriladi: muammoni tahlili asosida aniqlash; mo'ljallanilayotgan ta'lim tizimini loyihlash; o'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish; o'zgarishlarni amalga oshirish.


Bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishning natijadorligi quyidagi holatlarda ko'rinadi: bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishni amalga oshirishda dastlab aniq maqsadga ega bo'lish; ta'lim-tarbiya jarayoniga metodik jihatdan to'g'ri yondasha olishi, metodik tayyorgarlikka etarli egalik; nostandart vaziyatlarni tahlil etib borish, tezkor xulosa va qarorlar chiqara bilishi; ziddiyat va muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etishning maqbul variant va usullarini izlab topish, pedagogik kuzatish, tajribada o'rganish, olingan natijalarni tahlil qilish va tizimlashtirish; o'z ustida mustaqil ishlashni muntazam amalga oshirib borish;



olib borayotgan faoliyati natijalarini nazorat va tahlil qila qilib borish; yangi axborot kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalanib borish malakasining egallanganligi; yangi g'oya, fikr, qarashlarni izlab topa olishi, ularni amaliyot jarayonlariga keng tadbiiq etishga tayyorgarligi.

Ilmiy tadqiqot ishining tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan nazariy ma'lumotlar jamlanmasi, erishilishi rejalashtirilgan natijalar va olib borilishi ko'zda tutilgan eksperimental jarayonlar uchun yaratilgan dasturning ishonchliligini, samaradorligini asoslash tajriba sinov ishlarining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq.

Tajriba sinov ishlarini tashki etish rejasini ishlab chiqishda pedagogik faoliyat bilan faol shug'illangan va ijobiy natijalari ommalashgan olimlarning ishlarini tahlil qilishdan boshladik. Shu jumladan matematik statistik usullardan keng foydalanib turli xisoblash dasturlari vositasida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish bilan shug'illangan olim T.S.Jalolov, eksperimental tadqiqotlarni tashkil qilish metodikasini ishlab chiqqan tadqiqotchi F.Z.Dilova va G.Rajabovalar hamda belgilangan obektlarga fanlarni o'zaro aloqadorlikda o'qitish bo'yicha tadqiqot olib borgan T.Y.Bakirovlarning amalga oshirgan ishlaridan keng foydalanildi va so'ngida quyidagi reja asosida faoliyatni olib borish belgilandi.



1-rasm. Pedagogik tajriba sinov ishlarini tashkil etish rejasi.

Bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotning asosiy maqsadi, ularning tarixiy jarayonni tushunishga doir zamonaviy yondashuvlariga doir bilimlarini rivojlantirish bo'lib, ularga "Tarix falsafasi va metodologiyasi" fani talablariga mos ravishda o'quv faoliyatini amalga oshirish imkonini oshiradi. Talabalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olib, ularda tarixiy-faslafig tafakkurni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotning tajriba-sinov ishlari eksperimental bosqichini amalga oshirish bilan birga tarixiy-fasafiy tafakkuri yuqori bo'lgan pedagoglar yosh avlodning tarixiy tafakkurini rivojlanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, tadqiqot natijalari esa talabalarning tarix falsafasining zamonaviy yondashuvlariga doir bilimlarini yuksalishiga tayyorlaydi, raqamli texnologiyalarga tayangan holda ta'lim standartlariga mos kadrlar tayyorlash imkonini yaratadi va eng muhimi bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasiga doir bilimlarni yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik / O'quv qo'l. Usmonbayeva M., Hakimova M., Innazarov M., Nabiyeu G'. – T.: "Navro'z" nashriyoti, 2020. – B. 69
2. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Ёзма манбалар маълумоти асосида. –Тошкент: Фан, 1994. – Б. 33; Мамажонов М. Миллий ҳарбий анъаналар ва уларнинг тарбиявий имкониятлари / Методик тавсиянома. – Тошкент: ЎзПФИТИ, 2007. – Б, 12
3. Амир Темур ўғитлари / Тўплаб нашрга тайёрловчилар Б. Аҳмедов ва А. Аминов. – Тошкент: Наврўз, 1992. – Б. 11

